

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2025-yil yanvar-noyabr oyi)

1. Sanoat mahsuloti

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida respublika korxonalari tomonidan **963 346,0** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **106,8** % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 85,6 % ni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 7,2 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 6,6 % ni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 0,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish o'sishining asosiy omili bo'lib ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,2 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 5,9 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida 9,2 % ga oshganligi elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida 3,6 % ga.

Shuningdek, o'tgan yilning shu davriga nisbatan kiyim maxsulotlari ishlab chiqarish (2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 24,3 % ga oshgan), boshqa metall bo'lmagan mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (21,4 % ga), rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (16,1 %) hajmi oshdi, oziq-ovqat ishlab chiqarish (7,9 % ga).

O'tgan yilning shu davriga nisbatan mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish (2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 81,6 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 92,7 %) hajmi pasayishi kuzatildi.

2. Inflyatsiya darajasi

Respublikada 2025-yil noyabr oyida iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasini aks ettiruvchi iste'mol narxlari indeksi (INI) 2024-yil dekabriga nisbatan **106,4** % ni tashkil etdi.

Shu davr mobaynida oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI 104,0 % ni, nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha 104,9 % ni, xizmatlar bo'yicha esa 113,1 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'zgarishlari hisobiga umumiy INI 2024-yil dekabriga nisbatan 1,82 foiz darajasida yuqoriladi (f.d.). Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining oshishi yig'ma INIga 1,55 f.d., xizmatlar 2,98 f.d. ta'sir etdi.

2024-yilning dekabriga nisbatan INI yuqori chegarasi 116,8 % ("Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari"), quyi chegarasi – 98,8 % ga ("Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar") yetdi.

2025-yilning yanvar-noyabr oylari uchun INI o'sishiga eng katta ta'sir bu "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari", "Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar", "Transport", "Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar" va "Sog'liqni saqlash" bo'limlaridagi narxlar va tariflarning o'zgarishida bo'ldi (+5,37 f.d., yoki umumiy o'sishning 84,6 % i).

3. Qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-noyabr oyida **273 276,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **114,6 %** ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 66837,3 mlrd. so'mi yoki 24,5 % yirik korxona va tashkilotlar, 136574,1 mlrd. so'mi yoki 50,0 % kichik korxonalar va mikrofirmalar, 69864,8 mlrd. so'mi yoki 25,5 % norasmiy sektor subyektlari tomonidan bajarildi.

4. Chakana savdo tovar aylanmasi

2025-yilning yanvar-noyabr oyida chakana savdo tovar aylanmasi **402 952,4** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **11,2 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 20,6 % ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining 18,0 % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi 2024-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 9,2 % ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 72,4 % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 8,9 % ulush bilan 38 519,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

5. Tashqi savdo aylanmasi

2025-yilning yanvar-noyabr oyi yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **72 780,2** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **13 018,4** mln. AQSh dollariga yoki **21,8 %** ga ko'paydi. Eksport hajmi **30 894,8** mln. AQSh dollariga yetdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **26,2 %** ga ko'paydi. Import **41 885,4** mln. AQSh dollariga yetdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan **18,7 %** ga o'sdi.

Eksport tarkibida quyidagi guruhlarda o'sish kuzatildi, jumladan: oziq-ovqat va tirik hayvonlar 36,2 % (714,5 mln. AQSh doll.)ga, har xil tayyor mahsulotlar 52,9 % (535,3 mln. AQSh doll.)ga, kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar 19,2 % (299,9 mln. AQSh doll.)ga, mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar 13,7 % (167,3 mln. AQSh doll.)ga.

Import tarkibida quyidagi guruhlarda ham o'sish kuzatildi, jumladan: mashina va transport uskunalari – 15,0 % (1 833,8 mln. AQSh doll.)ga, sanoat mahsulotlari 18,8 % (1 038,8 mln. AQSh doll.)ga, kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar 19,1 % (819,2 mln. AQSh doll.)ga, oziq-ovqat va tirik hayvonlar 20,0 % (667,7 mln. AQSh doll.)ga to'g'ri keladi.

6. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **915 971,1** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **14,6** % ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlarning 23,7 % ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 3,9 foiz punkt), transport xizmatlari 12,9 % ga (o'sishdagi ta'siri 2,4 foiz punkt), savdo xizmatlari 13,3 % ga (o'sishdagi ta'siri 2,4 foiz punkt), yashash va ovqatlanish xizmatlari 9,3 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,9 foiz punkt) aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 22,6 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,6 foiz punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi yashash va ovqatlanish (187 977,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,3 % ga yetdi), transport xizmatlari (168 422,0 mlrd. so'm, 112,9 %), savdo xizmatlari (158 876,9 mlrd. so'm, 113,3 %) va moliyaviy xizmatlar (153 470,9 mlrd. so'm, 123,7 %)ga to'g'ri keladi.

7. Korxona va tashkilotlar soni

2025-yil 1-dekabr holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **471,7** mingtani (*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*) tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 401,5 mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahri (108 004 ta), Toshkent (45 974 ta), Samarqand (40 672 ta), Farg'ona (37 841 ta), Qashqadaryo (30 226 ta), Buxoro (28 741 ta) va Namangan (26 909 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – 153 092 ta, sanoat sohasida – 59 325 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 34 494 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 30 191 ta hamda qurilish sohasida – 30 107 tani tashkil etadi.

2025-yil yanvar-noyabr oylarida respublikada 80,5 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxona va mikrofirmalar soni 76,1 mingtani tashkil etdi.

2025-yil 1-dekabr holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 17 900 tani tashkil etdi. Ulardan 4 228 tasi qo'shma korxonalarni va 13 672 tasi xorijiy korxonalarni tashkil etgan.